

**RANGTASVIR FANINING TALABALARDA IJODIY TAFAKKUR VA
ESTETIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI
PEDAGOGIK AHAMIYATI**

Zikrillayeva Visola Hamrayevna

Buxoro davlat pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

Tel: +998 914050906

Elektron manzil: zikrillayevavisola@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada rangtasvir fanining talabalarda ijodiy tafakkur va estetik didni shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Fan orqali talabalarning badiiy-intellektual salohiyati, estetik qarashlari, tasviriy kompetensiyalari va kreativ fikrlash qobiliyatları shakllanishi tahlil qilingan. Shuningdek, san'at ta'luming ta'sirchan vosita sifatida ta'lim tizimidagi o'rni va boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi asosida ijodkor shaxsni tarbiyalashdagi o'rni olib berilgan.

Kalit so'zlar: Rangtasvir, ijodiy tafakkur, estetik tarbiya, pedagogik kompetensiya, kreativlik, badiiy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: This article highlights the pedagogical significance of the subject "Visual Arts" in fostering creative thinking and aesthetic sensibility among students. It analyzes how the subject contributes to the development of students' artistic-intellectual potential, aesthetic perspectives, visual competencies, and creative thinking abilities. Additionally, the role of art education as an influential tool in the education system and its integration with other subjects in nurturing creative individuals is discussed.

Keywords: Visual arts, creative thinking, aesthetic education, pedagogical competence, creativity, art education, competency-based approach.

Введение

В данной статье раскрывается педагогическое значение предмета «Живописи» в формировании у учащихся творческого мышления и эстетического восприятия. Проанализировано развитие художественно-интеллектуального потенциала, эстетических взглядов, визуальных компетенций и креативного мышления учащихся через данный предмет. Также освещена роль художественного образования как эффективного средства воспитания творческой личности в системе общего образования.

Ключевые слова: Живописи, творческое мышление, эстетическое воспитание, педагогическая компетенция, креативность, художественное образование, компетентностный подход.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, tashabbuskor va estetik dunyoqarashga ega shaxsni shakllantirishdir. Bu esa talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning tafakkuri, estetik didi, badiiy ifodasi, tasavvur olamini ham rivojlantirish zarurligini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, “Rangtasvir” fani zamonaviy ta’lim jarayonida alohida pedagogik va estetik ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning badiiy-estetik bilimlarini shakllantirish, ularda san’atga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish va rivojlantirish, ta’lim tizimida mavjud muammolarning ilmiy-amaliy yechimini topishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Rangtasvir darslari orqali talabalarda tasviriy va amaliy san’at, dizayn, badiiy hunarmandchilik, me’morchilik kabi yo‘nalishlarga oid bilimlar beriladi. Bu jarayonda ularning badiiy-intellektual salohiyati yuksaladi, ijodiy kompetensiyalari shakllanadi. [1, 196b]

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida beriladigan topshiriqlar ijodiy yondashuvga asoslangan bo‘lib, talabani yangicha fikrlashga, individual qarashlarni shakllantirishga undaydi. Badiiy tasvirlash vositalaridan foydalanish, kompozitsion yechim topish, rang va shakl uyg‘unligini yaratish orqali talabalar nafaqat tasviriy ifoda malakasini, balki muammoni tahlil qilish va ijodiy hal etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Ijodiy fikrlaydigan shaxslar — jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu bois, ta’limda ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi fanlarning ahamiyati oshib bormoqda. “Jamiyatimizga robotsimon ijrochilar emas, balki fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak” degan fikr bejizga ilgari surilmagan [2, 29–30]. Shubhasiz, zamonaviy jamiyatga robotsimon ijrochilar emas, balki mustaqil fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor va tashabbuskor shaxslar kerak. “Tasviriy san’at” fani esa aynan shunday shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi pedagogik vositadir. Bu fan orqali talabalar ijodiy tafakkur, tasviriy ifoda, kompozitsion tuzilma, ranglar uyg‘unligi, shakl va mazmunni anglash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

**1-rasm**

Ijodiy-badiiy tafakkur esa butunlay yangi g‘oya va tasavvurlarni vujudga keltirish, shaxsda yashirin bo‘lgan imkoniyat va qobiliyatlarni yuzaga chiqarish imkonini beradi. Bunday sifatlar nafaqat san’at sohasi vakillari, balki har qanday sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rangtasvir fani ana shunday tafakkurni rivojlantiruvchi boy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda talabalar o‘z ichki dunyolarini ifodalash, shaxsiy qobiliyatlarini ochish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.[3]

Shuningdek, talabalarda tasviriy savodxonlikka oid kompetensiyalarni shakllantirish ularning kreativ fikrlashga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu esa pirovard natijada ijodiy fikrlaydigan, ijtimoiy faol va badiiy-estetik jihatdan yetuk shaxsnинг shakllanishiga olib keladi. Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashda ta’lim tizimining har bir bo‘g‘ini muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda, talabalarning badiiy-estetik bilimlarini shakllantirish — ularni estetik did, ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyatlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida voyaga yetkazishning muhim omili hisoblanadi. Bunday yondashuv esa, zamonaviy ta’lim tizimidagi dolzarb muammolarning ilmiy-amaliy yechimlarini izlab topishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.[4]

Bugungi kunda yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiylarini takomillashtirish orqali mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotiga zamin yaratish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralganda, oliy ta’lim fanlari qatorida “Rangtasvir” fani ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan talabalarni san’atning turli yo‘nalishlari — tasviriy va amaliy san’at, dizayn, badiiy hunarmandchilik hamda me’morchilikka oid bilimlar bilan tanishtirish orqali ularning estetik didini shakllantiradi, badiiy-intellektual salohiyatini rivojlantiradi.

Rangtasvir faniining talabalarga ta’siri nafaqat amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bilan cheklanadi, balki ularning ijodkorlik qobiliyatini ham rag‘batlantiradi. Talabalar mashg‘ulotlar davomida o‘z tasavvurlari, fantaziysi va badiiy ifoda vositalari orqali yangicha yondashuvlarni shakllantiradi, turli masalalarga individual yechimlar topadi. Bunday yondashuv esa ijodiy kompetensianing tarkib topishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, rangtasvir fani talabada ijodiy fikrlash, estetik did, badiiy ifoda va tasviriy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Talabalar san’at asarlarini yaratish jarayonida mustaqil fikrlash, yangilikka intilish va estetik qadriyatlarni anglash kabi kompetensiyalarini egallaydilar.

Rangtasvir fanining talabalarda ijodiy tafakkur va estetik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqilishi lozim. Bu fan orqali talabalar nafaqat san’atga oid bilimlarni, balki umumiylar tafakkur, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuv kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar.[5]

Rangtasvir fani o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va badiiy kompetensiyalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Rangtasvir fani boshqa fanlarga nisbatan o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularning ichki dunyosini boyitish, go‘zallikni anglash va qadrlashga o‘rgatishda yanada kengroq imkoniyatlarga egadir. Bu imkoniyatni to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun esa ta’lim jarayonida samarali pedagogik tizimni joriy etish, metodik yondashuvlarni takomillashtirish, o‘quvchilarning estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish zarur.[6]

Rangtasvir fani — kelajakda kreativ fikrlaydigan, ijtimoiy faolligi yuqori, o‘z sohasining yetuk mutaxassisini bo‘la oladigan shaxsni shakllantirishda muhim pedagogik kafolat bo‘lib xizmat qiladi. . Shu bois oliy ta’limda O’zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni [7] va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” [8] talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni zamonaviy loyihalash, ularga ijodiy yondashish shu bilan birga jahon ta’limi darajasiga yetkazish kabi dolzarb vazifalar bugungi kunda o‘z yechimini topishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shovdirov SA. O‘quvchilarda tasviriy savodxonlikka oid o‘quv kompetensiyalarini shakllantirish. // «Globalashuv jarayonlari, ma’naviy taxdidlar, yoshlar ta’limi va tarbiyasi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari tuplami (5 - kism). - Navoiy, - 2016. - B. 195 - 197.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: “Shark”, 1997. - 31 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi PQ–60-son qarori “2022–2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
4. S. F. Abdullaev . I.N. Gadoyev Rangtasvir. O”quv qo”llanma. Navoiy – 2022 .
5. Абдуллаев С. Ф., Муродова М. Х. Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению //Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2 (81). – С. 21-24.
6. Shovdirov.S.A. “O’quvchilarda tasviriy savodxonlikka oid o’quv kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish”. Ped. Fanlari bo'yicha falsafa dokt. (phd) dis. Avtoreferati. Samarqand, 2022.-18.
7. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi yangi Qonuni. // www. Ziyonet.uz. 2020 yil, 24 sentabr.
8. O’zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: 1997. - B. 31-63